



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRINING BUYRUG‘I

27«may»2024 yil.

01/870-A/F-son

Sport vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 4-iyuldagi PQ–3837-son qarori, “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 16-iyundagi PF–6247-son va “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-yanvardagi PF–18-son Farmonlariga muvofiq

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 4-iyuldagi PQ–3837-son qarori, “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 16-iyundagi PF–6247-son va “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-yanvardagi PF–18-son Farmonlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

a) Sport vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi (bundan buyon matnda **Jamoatchilik kengashi** deb yuritiladi) to‘g‘risidagi nizom **1-ilovaga**;

b) Jamoatchilik kengashi tarkibi **2-ilovaga**;

v) Jamoatchilik kengashining 2024-yil uchun mo‘ljallangan yillik ish rejasi **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Vazir kotibiyati boshlig‘i (**Hamrayev**), Axborot-tahlil va ijro intizomi bo‘limi Jamoatchilik kengashi ish rejasida belgilangan chora-tadbirlarni Jamoatchilik kengashi Nizomiga muvofiq amalga oshirilishini o‘rganib borsin hamda doimiy nazorat yuritsin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sport vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar sport boshqarmalari boshliqlari **o‘n kun muddatda** tegishliligi bo‘yicha o‘zlarining Jamoatchilik kengashlari tarkibini shakllantirib, ular faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rsin.

5. Devonxona (**Rasulova**)ga:

a) mazkur buyruq bilan vazirlikning tegishli boshqarma va bo‘limlarini tanishtirish;

b) ushbu buyruq nusxasini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sport boshqarmalari hamda vazirlik tizimidagi tashkilotlarga yuborish vazifalari yuklansin.

6. Mazkur buyruq ijro nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir



A.Ikramov